

**RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TA'LIM SOHASINING  
TAJRIBASIDAN FOYDALANISH (xususan Janubiy Koreya)**

*ADCHTI Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasи o'qituvchisi*

*Xodjimuratova Nodira Mamirovna*

**Annotatsiya:** Janubiy Koreyaning zamonaviy madaniyatida ushbu munosabat modeli ishlab chiqiladi va Beshta munosabatlar deb ataladi.

**Kalit so'zlar:** rivojlantirish, Janubiy Koreya, munosabatlar, yosh avlod.

**Аннотация:** В современной южнокорейской культуре разработана эта модель отношений, получившая название «Пять отношений».

**Ключевые слова:** развитие, Южная Корея, отношения, молодое поколение.

Har bir mamlakat o‘z mezonlari asosida ta’lim tizimini belgilaydi. Shuning uchun turli davlatlarda ta’lim olish imkoniyatlari turlicha bo‘ladi. Tizimga asos solinayotganda mamlakatning tarixiy an’analari, bugungi kun talablari inobatga olinadi. Bugungi maqolamizda ba’zi mamlakatlarning ta’lim tizimi haqida so’z boradi. Koreyaning ta`lim tizimi, madaniyati, san’ati, tarixiga qiziqadigan yoshlar soni yurtimizda ko`paymoqda. Koreya Respublikasi ta’lim tizimi dunyoda yetakchi o`rinlarda turadi. Koreyaning zamonaviy ta’lim tizimi rasman Yaponiya mustamlakasidan ozod bo’lgan 1945-yildan boshlangan. Ammo kengroq qaraydigan bo’lsak, koreyslarda ta’lim tizimi 1894-yilgi islohotlardan keyin yuzaga kelgan, deyish mumkin. 1881-yili Koreyadagi Choson hukumati mamlakat xavfsizligini kuchaytirish maqsadida maxsus armiya tuzadi va g’arbliklar harbiy san’atdan dars bera boshladilar. Mamlakatda oliy o’quv yurtlarining ishlari yaxshi yo’lga qo'yilgan. Koreyada 104 ta oliy o’quv yurti bor, ularning 80 foizi xususiyidir. Hozir mamlakatda oliy o’quv yurtlarida o’qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktablarni bitiruvchilarning 40 foizi o’qishga kiradi. Talabalar soni bo'yicha Koreya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Lekin

## ***Modern education and development***

---

maktabgacha ta'lif muassasalari ishida muammolar bor. Talab ehtiyojni qondira olmayapti. Shuning uchun 1982 yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog'chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. SHu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir. Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45 foizi bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari yetishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisoslari o'zlashtiriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Ta'lif haqidagi qonun talablaridan biri shudir.

Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor kuchli. So'nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy maktab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan.

Boshlang'ich muktab masalasiga kelganda (bu muktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig'izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o'qiydi. Lekin o'yinlar dam olish o'quv dasturiga kiritilgan. SHuning uchun dam olishga imkoniyat bor.

Boshlang'ich muktabda dars 40 minut davom etadi. O'rta muktabda esa darslar 45 minut.

Oliy muktabda darsning davomiyligi 50 minutga teng. Bu yerda ikki muhim jihatga to'xtalib o'tish zarur. Oliy muktabga, albatta, kirish imtihonlari topshirib kiritiladi, o'qishlar pullik.

Boshlang'ich muktabda 9 ta fan o'qitiladi. Koreys tilini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o'qitiladi.

O'rta muktabda fanlar yana 4 taga ko'paytirilgan. 7-sinfdan boshlab chet tillar o'rgatiladi. Mamlakatda ingliz tiliga e'tibor kuchli. Ko'pchilik bu tilda bemalol gaplasha oladi. CHet tillarni o'qitishga haftasiga 4-5 soat ajratilgan. Koreyslar yana bir tilni klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy tarixi o'rganiladi. Xususan, jamiyatning xatti-harakatlari, miloddan avvalgi 500 yilda Xitoyda ishlab chiqilgan konfutsiylik tamoyillariga asoslanadi. Kichik yoshdagi koreyslar o'z farzandlariga ota-onasiga, oilasiga

bo`lgan hurmat-ehtiromni o`rgatadi. Adolat, halollik, insonparvarlik, tinchlik va ta`lim kabi tushunchalarga katta e'tibor berishadi. Janubiy Koreyaning zamonaviy madaniyatida ushbu munosabat modeli ishlab chiqiladi va Beshta munosabatlar deb ataladi. Xususan, ota-onas, er-xotin, katta va yosh avlodlar, hukmdorlar va subyektlar o`rtasida, do'stlar o`rtasidagi muloqotda ma'lum normalarni belgilaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.**

1. V.S.Xan Koreya tarixi 2013.
2. Li, Ki-Mun, Ramsey, S.Robert Koreys tili tarixi 2011.
3. [www.korea.net](http://www.korea.net)